

## O‘ZBEKISTONDA MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI BOZORINING HAJMI VA UNING RIVOJLANISHI

Minojiddinov Abdulvosid

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: [Abdulvosidminojiddinov@gmail.com](mailto:Abdulvosidminojiddinov@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10029219>

**Annotatsiya.** Mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi eng ustivor va muhim salohiyatga ega bo‘lgan tarmoq xisoblanadi. Shunga ko‘ra yildan yilga unga bo‘lgan e‘tibor va uning istiqboli uchun muhim qarorlar va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ularning samarasi o‘laroq, bugungi kunda qishloq xo‘jaligi maxsulotlari ishlab chiqarish hajmi milliy ite‘moldan bir necha barobar oshdi.

**Kalit so‘zlar:** qishloq xo‘jaligi, maxsulothajmi, export, innovatsiyalar, eksport, daromad, aholi bandligi.

O‘zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari savdo-logistika, sotish va saqlash jarayonlarini muvofiqlashtirish, biznes yuritishda samarali marketing strategiyalaridan foydalanish asosida iqtisodiy o‘shishga erishishga qaratilgan yo‘nalishlarga alohida e‘tibor berilmoqda. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko‘rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish», shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmonida» «yangi maqsadli eksport bozorlarda savdo kelishuvchlarini amalga oshirish», «mahalliy va maqsadli xalqaro bozorlarda mahsulotlarning marketingi va tashish xarajatlarini kamaytirish» vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi meva-sabzavot mahsulotlari bozorining savdo marketing faoliyatini ishlab chiqish, meva-sabzavot mahsulotlari yetishtiruvchi, uni ulgurji va chakana sotuvchilarning o‘zaro mutanosib faoliyatini ta‘minlash mexanizmlarini takomillashtirish, o‘zaro munosabatlar marketingi hamda o‘zaro munosabatlar asosida iste‘mol qiymatini yaratishning marketing strategiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Shu jihatdan mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni amalga oshirishda dissertatsiya mavzusi dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining jahon qishloq xo‘jaligi bozorlarida mustahkam o‘rin egallashi ko‘p jihatdan eksportga chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligi bilan bog‘liq. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari ularning tashqi bozorlardagi xaridorgirligi hamda yashovchanligini ta‘minlashning eng asosiy shartlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni bilan qabul qilingan «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «... qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko‘rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish»singari muhim vazifalar belgilab berilgan. Bunday vaziflarning samarali bajarilishini ta‘minlash, avvalo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va yetkazib berish hamda jahon bozorlarida samarali marketing tadqiqotlarini

o'tkazish, bozor konyunkturasini doimiy o'rganish, eksport imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan marketing strategiyalarini amalga oshirishga bog'liq.

2020 yil ma'lumotlari bo'yicha O'zbekistonda 31 ta agrologistika markazi, 1 ming 500 ta sovutkich omborlar mavjud. Ularda jami yetishtiriladigan meva-sabzavotning atigi 4,5 foizini saqlash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, oziq-ovqat mahsulotlari narxiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, oziq-ovqat mahsulotlari narxini barqaror saqlash, bozorga doimiy yetkazib berish uchun keng infratuzilma yaratish zarur. Binobarin, respublika hukumati tomonidan 2025 yilga qadar sovutkichlar sonini 4 ming 500 taga, agrologistika markazlarini 140 taga yetkazish vazifasi qo'yilishi ham ayni shu masalaning yechimiga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilda meva va sabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmi 2017 yilga nisbatan 36 foizga (1,23 mln. tonnaga), mablag' hisobidan 37,5 %ga (874,5 mln AQSH dollariga) o'sgan. Biroq, paxta maydonlari qisqartirilishi hisobiga poliz, meva-sabzavot ekin maydonlari kengayishi, shu asosida mazkur mahsulotlar yetishtirish hajmi ortishini inobatga olganda umumiy ko'rsatkichlarda pasayish kuzatilgan.

### 1-jadval

**O'zbekiston Respublikasi barcha toifalarda yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish va savdosi to'g'risida ma'lumot**

№	Mahsulot turi	O'lchov birligi	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.
	aholi soni	ming kishi	31022,5	31575,3	32120,5	32656,7	33255,5
1	Kartoshka yetishtirish	ming tonna	2586,8	2789,5	2793,7	2911,9	3089,7
	Ichki bozorda chakana savdo	ming tonna	510,0	587,0	585,0	654,0	676,0
	Ichki bozorda chakana savdo	mlrd so'm	784,2	889,9	1159,4	1413,3	1565,7
	Ichki bozorda chakana savdo	%	19,7	21,0	20,9	22,5	21,9
	Aholi jon boshiga yetishtirish	kg	83,4	88,3	87,0	89,2	92,9
	Aholi jon boshiga chakana savdo	kg	16,44	18,59	18,21	20,03	20,33
2	Sabzavotlar yetishtirish	ming tonna	9390,0	10184,0	10219,9	9760,3	10215,1
	Sabzavotlar ichki bozorda chakana savdosi	ming tonna	1347,0	1256,0	1213,0	1339,0	1442,0
	Sabzavotlar ichki bozorda	mlrd so'm	2202,9	2405,3	2958,6	3398,6	3091,6

	chakana savdosi						
	ichki bozorda sotilish hajmi	%	14,3	12,3	11,9	13,7	14,1
	Sabzavotlar yetishtirish aholi jon boshiga	kg	302,7	322,5	318,2	298,9	307,2
	aholi jon boshiga sabzavotlar chakana savdosi	kg	43,4	39,8	37,8	41,0	43,4
3	Meva va rezavorlar yetishtirish	ming tonna	2467,9	2612,9	2614,9	2706,2	2752,7
	Mevalar ichki bozorda chakana savdosi	ming tonna	768	731	799	968	1005
	Mevalar ichki bozorda chakana savdosi	mlrd.so'm	2923,7	2918,2	3553,7	4503,6	4877,8
	ichki bozorda sotilish hajmi	%	31,12	27,98	30,56	35,77	36,51
	Meva va rezavorlar yetishtirish	kg	79,55	82,75	81,41	82,87	82,77
	Aholi jon boshiga mevalar chakana savdosi	kg	24,76	23,15	24,88	29,64	30,22

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va qayta ishlash sanoati agrosanoat majmuasining ikki muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bir-birini to'ldirgan holda ular birgalikda oziq-ovqat mahsulotlariga talabni yuqori darajada qondirishga qaratilgan yangi sifat tavsiflariga ega integratsiyalashgan tizim hosil qiladilar. Integratsiyalashishga ehtiyoj ular o'rtasidagi ijtimoiy mehnat taqsimoti paytidan boshlab yuzaga keladi.

O'zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari bozori rivojlanishini tahlil qilib, yaqin kelajakda ushbu mahsulotlarni tashish va saqlash bilan shug'ullanuvchi korxonalariga ehtiyoj ortadi. Bundan tashqari, savdo jarayonlari boshqaruv sohasidagi yangiliklardan keng foydalanuvchi, mijozlarga yo'naltirilgan, yuqori malakali kadrlarga ega va zamonaviy sharoitda o'zgarishlarga tayyor tashkilotlar sohada yetakchi o'rinni egallaydi. Tadqiqot davomida savdo jarayonlarini boshqarish moslashuvchan tizimining yakuniy boshqaruvini yanada rivojlantirish zarur, bu esa iste'molchilar uchun qo'shimcha qiymat yaratish imkonini beradi.

### References:

1. Sobirov.A "Meva-sabzavot mahsulotlari savdosida marketing faoliyatini

takomillashtirish” Iqt.fan.nom.ilm.dar.olish uchun yozilgan dis.-T.:2022.-b

2. Muftaydinov Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. / Dis.iqt. fan. d-ri. - T/, 2004. -18-b.
3. Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. / Dis. avt. ref. iqt. fan.d-ri. - T, 2017.-30-b.
4. Abulqosimov P., Qulmatov A. Tadbirkorlik sermashaqqat faoliyat. // «Iqtisod va hisobot», 1997, 9-son. – 9-b.
5. Nazarova F. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O‘zbekiston agrar sektorini rivojlantirish istiqbollari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis.–T.:–2001.-b.290.
6. Teshabaeva, O. N., & Madrahimov, B. M. (2023). Analysis of the state of development of small business and private business activities in Uzbekistan and ensuring population employment. Results of National Scientific Research International Journal, 2(5), 193-204.
7. Тешабаева, О. Н., & Ташматова, Н. Х. (2023). Ўзбекистон республикасида аграр секторда тadbirkorlik rivojlaniшининг ўзига хос жиҳатлари. Academic research in educational sciences, 4(1), 22-30.
8. Тешабаева, О. Н., Мухаммадов, И. Б. О., & Джамолиддинов, Д. Р. (2020). O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi kompleksi iqtisodiyotni rivojlanishida investitsiyalarning o'rnini. In минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари (pp. 600-603).
9. Тешабаева, О. Н., & Ахунова, О. Э. (2020). Привлечение инвестиций в развитие экономики агропромышленного комплекса республики Узбекистан. In Развитие регионального АПК и сельских территорий: Современные проблемы и перспективы (pp. 241-243).